

## **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2016 yilning 9 oyi yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari natijalari to‘g‘risida ma'lumot**

2016 yilning 9 oyi bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi **1468,7** mln.so‘m bo‘lib, 2015 yil (1233,0 mln.so‘m) ning shu davriga nisbatan **19,1** foizga o‘shirish kuzatildi. Hisobot davrida olingan daromad **951,5** mln.so‘m bo‘lib, 2015 yil (920,3 mln.so‘m)ning shu davriga nisbatan **3,4** foizga oshgan. Daromad pullik xizmatlar ko‘rsatish orqali topilgan.

### **Test topshiriqlarini tayyorlash, test sinovlarni tashkil etish va o‘tkazish**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga navbatdagi muddatli harbiy xizmatga chaqirilayotgan **116026** (116000) nafar chaqiriluvchi test sinovidan o‘tkazildi. Test sinovi natijalari hisoblanib, Mudofaa vazirligining hududiy boshqarmalariga taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni tugatayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini aniqlash bo‘yicha **18971** (19438) nafar harbiy xizmatchi uchun test sinovi o‘tkazildi va natijalari hisoblanib tegishli vazirliklarga taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga 2016-2017 o‘quv yili qabuli uchun **663304** (615003) nafar abituriyent uchun test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalariga o‘quvchilarni qabul qilish uchun **6299** (5653) nafar abituriyent uchun test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha saralash test sinovlarida qatnashgan **138200** (93504) nafar o‘quvchi uchun test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi tinglovchiligiga nomzod **731** (236) nafar talabgor uchun test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

Toshkent davlat yuridik universitetining magistraturasiga kirish maqsadida hujjat topshirgan **208** (335) nafar talabgor uchun test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi harbiy fakultetiga tanlov uchun **46** (38) nafar talabgorga test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

Bank-moliya akademiyasi magistraturasiga kirish maqsadida hujjat topshirgan **439** (462) nafar talabgor uchun test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

Ayrim fanlar chuqurlashtirib o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining 5-sinfiga o‘quvchilarni qabul qilish bo‘yicha **19701** (17313) o‘quvchi test sinovidan o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

Korporativ boshqaruv ilmiy ta'lim markazi magistraturasiga kirish uchun hujjat topshirgan **148** (101) nafar talabgor uchun test sinovi o‘tkazildi hamda natijasi hisoblandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o‘rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha yordamchilari, tuman va shaharlar hokimlarining mintaqaviy seminarlarining yakuni bo‘yicha **260** nafar tinglovchi test sinovidan o‘tkazildi va natijasi hisoblandi.

Umumta'lim fanlari olimpiadasi IV Respublika bosqichi doirasida **376** nafar talabgor test sinovidan o‘tkazildi va natijasi hisoblandi.

Imom Buxoriy xalqaro markazda diniy xodimlarning bilim va saviyasini oshirish bo‘yicha har oyda **70** nafar tinglovchi uchun oraliq va yakuniy test sinovlari o‘tkazib kelinmoqda.

2016/2017 o‘quv yili uchun ta'lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha o‘tkaziladigan test sinovlari jarayonida Davlat test markazining vakillari va auditoriya rahbar va kuzatuvchilari sifatida jalb etiladigan **443** mingdan ortiq pedagog xodimlarning ma'lumotlar bazasi qayta shakllantirildi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish bo'yicha saralash test sinovlarini o'tkazish uchun mahalliy hokimliklar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda **243** (163) ta bino, **592** (391) ta qavat va **4586** (3030) ta auditoriya tayyorlandi. Shuningdek, test sinovlari jarayonida Davlat test markazi vakillari, auditoriya rahbari va kuzatuvchilari sifatida Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalaridan **12135** (9701) nafar, oliy ta'lim muassasalaridan **1042** (809) nafar pedagog xodim jalb etildi.

Oliy ta'lim muassasalarida test sinovlarini o'tkazish uchun mahalliy hokimliklar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda **889** (783) ta bino, 2516 (2177) ta qavat va **19830** (17956) ta auditoriya tayyorlandi. Shuningdek, test sinovlari jarayonida Davlat test markazi vakillari, auditoriya rahbari va kuzatuvchilari sifatida Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalaridan **34919** (30714) nafar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalardan **22720** (20358), oliy ta'lim muassasalaridan **13419** (13228) nafar pedagog xodim jalb etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 maydagi «2016/2017 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga qabul to'g'risida»gi PP-2534-sonli qarori belgilangan vazifalar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining yo'nalishlar va tillar kesimidagi qabul ko'rsatkichlari hamda 18 ta yangi tashkil etilgan yo'nalishlarning test kodlari, ularga to'g'ri keladigan ta'lim yo'nalishlari va fanlar majmuasi ishlab chiqildi.

Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Fanlar akademiyasi tomonidan tavsiya etilgan va O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan **155 nafar** yuqori malakali mutaxassis va tajribali pedagog-o'qituvchilari tomonidan **13** ta umumta'lim fanidan uch tilda (o'zbek, qoraqalpoq, rus), lotin va kiril yozuvlarida, **43** ta fan bloki bo'yicha **33.3** mingta test topshiriqlari bazasi shakllantirildi.

Test topshiriqlari bazasi strukturasi o'tkazilgan test sinovlari natijalarini inobatga olgan holda ko'rib chiqilib, kerakli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Test topshiriqlari dasturlarini shakllantirishda ularning tillar bo'yicha mazmunan bir hil bo'lishi inobatga olindi.

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishda uslubiy ta'minot sifatini oshirish hamda mazkur jarayonda ochiqlikni ta'minlash maqsadida [www.dtm.uz](http://www.dtm.uz) saytida umumta'lim fanlari bo'yicha namunaviy test savollari berib borilmoqda.

### **Ta'lim muassasalarining pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish ishlari**

2.1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining oliy, birinchi hamda mazkur malaka toifalariga davogar **56547** nafar pedagog kadrlari uchun malaka sinovlari o'tkazildi. Malaka sinovi natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi Bosh boshqarmasiga taqdim etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi Bosh boshqarmasiga 2015 yil noyabr-dekabr oylarida attestatsiyadan o'tgan hamda oliy, birinchi, ikkinchi malaka toifalariga ega bo'lgan **15531** nafar pedagog kadrlar uchun sertifikatlar taqdim etildi.

Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 7 apreldagi 107-son "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomini tasdiqlash haqida"gi qarorida belgilangan tartibni bajarish maqsadida "Pedagog kadrning attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatlarni hisobga olish, saqlash va topshirish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazildi (2798, 2016 yil 9 iyun).

### **Ta'lim muassasalarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish**

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida **12** ta oliy ta'lim muassasasi, **20** ta akademik litsey va **69** ta kasb-hunar kolleji, **587** ta maktabgacha va **1538** ta umumiy o'rta ta'lim muassasasi

attestatsiyadan o'tkazildi.

Akkreditatsiya komissiyasining qarorlariga muvofiq **2** ta oliy, **583** ta maktabgacha, **1530** ta umumiy o'rta ta'lim muassasasi, **2** ta kasb-hunar kolleji va **4** akademik litsey akkreditatsiyalandi.

### **Respublika oliy ta'lim muassasalari reytingini baholash**

Oliy ta'lim muassasalarida asosiy shtatda faoliyat olib borayotgan **22** mingga yaqin professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarni "Xorijiy tillar" va "Axborot kommunikatsiya texnologiyalari" bo'yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida "Chet tili bo'yicha test topshiriqlar strukturasi" hamda "Kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish dasturi" talablari doirasida test savollari bazasi yaratildi va test sinovlari o'tkazildi. O'tkazilgan test sinovlarida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining **92,6%** ishtirok etdi. Test sinovlari natijalari bo'yicha ma'lumotlar Vazirlar Mahkamasiga, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga hamda oliy ta'lim muassasalariga taqdim etildi.

### **Ta'lim sifati monitoringiga oid ishlar**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29 oktyabrdagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimiga izchil o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 473-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim tayyorgarligi darajasi va sifati monitoringi o'tkazildi.

Respublika bo'yicha jami **14** ta akademik litsey va **97** ta kasb-hunar kolleji monitoring jarayonida qatnashdi.

Har bir ta'lim muassasasidan bitta bitiruvchi bosqich guruhi tanlab olinib, o'quvchilar "Biologiya", "Matematika", "Xorijiy til" fanlaridan **12** tadan (jami **36** ta) savoldan iborat test sinovlari topshirdilar. Shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida ta'lim sifati va bitiruvchilarning ta'lim tayyorgarlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishga bag'ishlangan ijtimoiy so'rov o'tkazildi. Monitoring jarayonida jami **3500** nafarga yaqin bitiruvchi bosqich o'quvchilari va **400** nafardan ortiq umumta'lim fanlari o'qituvchilari qatnashdi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim tayyorgarligi darajasi va sifati monitoringi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar to'plami tayyorlanib chop etildi.

### **Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash ishlari**

Vazirlar Mahkamasining nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasi ishchi organi sifatida joriy yilning hisobot davrida **120** ta maktabgacha ta'lim, **30** ta umumiy o'rta ta'lim, **281** ta kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda **48** ta maktabdan tashqari, **1** ta oliy ta'lim turi bo'yicha jami **480** ta litsenziya talabgorlarining tegishli hujjatlari qabul qilinib, o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqildi.

Vazirlar Mahkamasining nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining tegishli qarorlari bilan **69** ta maktabgacha ta'lim, **89** ta kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, **23** ta maktabdan tashqari ta'lim, **9** ta umumiy ta'lim turlari bo'yicha jami **190** ta nodavlat ta'lim muassasasiga tegishli litsenziyalar rasmiylashtirib berildi. Shuningdek, **21** ta yuridik shaxsning mavjud litsenziyasi qayta rasmiylashtirildi va **73** ta litsenziya bitimiga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritildi. **47** nafar litsenziya talabgorining hujjatlari ekspertizadan o'tkazilib, ekspertiza xulosalari va komissiyaning majlisi bayoni loyihasi komissiyaga taqdim etildi. **56** nafar litsenziya talabgorlarining hujjatlari ekspertizadan o'tkazilmoqda.

## **Nostrifikatsiyalash va rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish ishlari**

Joriy yilning hisobot davrida jami **1103** nafar fuqaroning xorijiy davlatlarda talim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini nostrifikatsiyalash bo'yicha murojaatlari ko'rib chiqildi.

Jami **217** nafar fuqaroning ta'lim hujjati nostrifikatsiya qilindi. Ulardan, **186** ta hujjat umumiy tartibda, **31** tasi esa davlatlararo bitimlar va kooperatsiya shartnomalari asosida o'qigan fuqarolarning diplomlaridir. Nostrifikatsiyalangan talim hujjatlaridan **34** tasi oliy magistr, **41** tasi oliy (diplomli mutaxassis), **124** tasi oliy bakalavr va **18** tasi o'rta maxsus malumot diplomlariga tenglashtirildi va tegishli guvohnomalar rasmiylashtirib berildi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari qoshida tashkil etilgan xorijiy davlatlarda talim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash bo'yicha ekspert komissiyalari tomonidan tavsiya etilgan **246** nafar fuqaroning umumiy o'rta va o'rta talim to'g'risidagi xorijiy davlatlarda olgan shahodatnoma va attestatlari nostrifikatsiyalandi va tegishli guvohnomalar rasmiylashtirib berildi.

Hisobot davrida jami **4296** nafar fuqarodan **4687** ta ta'lim va fan sohasi tashkilotlaridan chiqadigan rasmiy hujjatlar qabul qilinib, ular belgilangan tartib asosida ko'rib chiqildi va ulardan **4428** ta rasmiy hujjatga apostil qo'yildi, **7** ta hujjatga apostil qo'yish rad etildi. **252** ta hujjat ko'rib chiqilmoqda.

## **Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish ishlari**

Chet tillari o'qituvchilariga ustama haq belgilash maqsadida joriy yilda **9986** nafar o'qituvchilar test sinovidan o'tkazildi, test sinovi natijasiga muvofiq **1489** nafar, jumladan **998** nafar xalq ta'limi tizimidagi, 440 nafar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi, **100** nafar oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilarga muvaffaqiyatli o'tganliklari haqida ustama haq olish huquqini beruvchi ma'lumotnomalar berildi.

Chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash hamda davlat namunasidagi malaka sertifikat olish maqsadida 9 oy davomida **250** nafar talabgorlar ariza bilan murojaat qildi. Test sinovlari natijasiga muvofiq talabni bajargan **118** nafar, jumladan **91** nafar ingliz, **10** nafar arab, **4** nafar fransuz, **3** nafardan nemis va koreys, **2** nafardan yapon, turk, ispan va **bir** nafar xitoy tillari bo'yicha talabgorlarga chet tilini bilish darajasi haqida davlat namunasidagi malaka sertifikat berildi.

Chet tillari o'qituvchilariga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi bilan amkorlikda test sinovi natijalari tahlili asosida videoseminar o'tkazildi.

Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasining veb-saytida test topshiriqlarining formati, mazmuni, test sinovlarining natijalari, xalqaro tajribaga oid ma'lumotlar yoritilmoqda, interaktiv xizmatlar sahifasi muntazam ishlarilmoqda.